



OILA INSTITUTI VA UNING O‘ZBEKISTONDAGI QONUNCHILIK BILAN HIMOYA QILISH ORQALI RIVOJLANTIRISH YO‘LI

Sobirova Huriniso Alisher qizi

Toshkent Davlat Transport Universiteti

Iqtisodiyot fakulteti 4-kurs Yu-2a guruh talabasi

Annotatsiya: Jamiyatimizning asosiy bo‘g‘ini sifatida oila instituti va uning muhofazasi va O‘zbekiston qonunchiligi ushbu maqolaning tadqiqot obektidir. Maqolada shuningdek, oila tushunchasining mazmun mohiyati, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda bu institutni mustahkamlash yo‘lida qilinayotgan salmoqli islohotlar ham atroflicha muhokama etiladi. Oila kategoriyasiga bo‘lgan milliy yondashuvining Konstitutsiyaviy asoslari tahlil etilib, xorijiy manbaalar tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, Respublika, konstitutsiya, oila, erkak, ayol, qarindoshlik, nikoh, onalik, bolalik.

The institution of the family and its development through legislative protection in Uzbekistan

Abstract: The institution of the family as the main link of our society and its protection and the legislation of Uzbekistan are the object of research of this article. The article also discusses in detail the essence of the concept of family, the significant reforms that have been carried out in Uzbekistan in recent years to strengthen this institution. The Constitutional foundations of the national approach to the family category are analyzed and foreign sources are studied.

Key words: Uzbekistan, Republic, constitution, family, man, woman, kinship, marriage, motherhood, childhood.

"Oila" tushunchasining mohiyatini bir necha jihatlariga ko‘ra aniqlash mumkin. Birinchidan, oila jamiyat uchun o‘ziga xos vazifalardan birini-insoniyatni takror ishlab chiqarishni amalga oshiradigan ijtimoiy institutdir. Ikkinchidan, oila-bu odamlarning kichik guruhi, ya‘ni umumiy vazifalari, maqsadlari, manfaatlariga ega bo‘lgan, shuningdek, o‘zlarining ichki qonuniyatlari bo‘yicha rivojlanib, faoliyat ko‘rsatadigan turli xil odamlarning birlashmasi. Oila konseptsiyasini ko‘rib chiqishda psixologik, ijtimoiy, huquqiy va boshqa yondashuvlarni qo‘llash mumkin, chunki bu tushunchaning kengqo‘llanilishi nafaqat sotsiologiya, psixologiya,



pedagogikada, balki huquqshunoslikda, xususan, huquqiy hujjatlarda- qonunlarda ham qoʻllaniladi.

O.G. Proxorova oilani nafaqat erkak va ayolni, balki ularning farzandlarini, shuningdek, boshqa qarindoshlarni birlashtiruvchi murakkab munosabatlar tizimi deb tushunadi. A. I. Antonovning taʼrifiga koʻra, oila- bu nikoh- ota-onalik- qarindoshlik rishtalari bilan bogʻlangan va shu orqali oilaviy funksiyalarni bajaradigan yagona umumiy oilaviy faoliyatga asoslangan odamlar jamoasi. Qonun nuqtai nazaridan oila deganda nikoh, qarindoshlik, farzandlikka olish yoki bolalarni tarbiyalash uchun oilaga qabul qilishning boshqa shakllaridan kelib chiqadigan huquqlar va oʻzaro majburiyatlar bilan bogʻliq boʻlgan shaxslar doirasini tushuniladi. Oila nikoh, qon-qarindoshlik va shu kabi kishilar oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikdan hosilboʻladigan ijtimoiy tuzilmadir. Oʻziga xos boʻlgan mazkur ijtimoiy tuzilmadagi jismoniy shaxslar oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni tartibga solish, ularning huquq va majburiyatlarini belgilash huquqning vazifasi sanaladi. Har bir inson voyaga yetar ekan, albatta nihok tuzish ijtimoiy munosabatiga duch kelishadi. Nikoh tuzish- bu har bir insonning shaxsiy huquqi hisoblanadi. Oʻzbekiston Respublikasi Oila kodeksining 3-moddasida keltirib oʻtilganidek, nikoh tuzish chogʻida jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, eʼtiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyi hamda boshqa holatlarga qarab, huquqlarni muayyan tarzda bevosita yoki bilvosita cheklashga, bevosita yoki bilvosita afzalliklar belgilashga hamda oilaviy munosabatlarga aralashishga yoʻl qoʻyilmaydi. Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Oila kodeksining 14-moddasi ikkinchi qismida ham nikoh tuzish uchun boʻlajak er- xotin oʻz roziligini erkin ifoda etish qobiliyatiga ega boʻlishi kerak. Nikoh tuzishga majbur qilish taqiqlanadi. Bu normaga amal qilmaslik esa javobgarlikka sabab boʻladi. Oila- jamiyatning asosiy boʻgʻini sifatida har qanday davlatning negizini tashkil etadi. Nafaqat Oʻzbekiston Respublikasida, balki butun dunyoda roʻy berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy voqealar davlat va jamiyat tomonidan yordam va koʻmakka muhtoj boʻlgan oilaviy munosabatlar ishtirokchilarining huquqlariga bevosita daxldor boʻlgan koʻplab muammolarni ochib berdi. Ularni hal qilish zarurati va shu orqali oila institutini isloh qilish inson va uning huquqlari oliy qadriyat boʻlgan huquqiy, ijtimoiy davlatni yaratishga qaratilgan demokratik islohotlar bilan bevosita bogʻliq. Mamlakatimizda oila va davlat oʻrtasidagi munosabatlarning asosiy tamoyillari Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan belgilanadi. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-bob oilaga bagʻishlangan boʻlib, asosiy qonunimizning 76-moddasiga binoan, “Oila jamiyatning asosiy boʻgʻinidir hamda



jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega. Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi”¹, deya belgilab qo‘yilgan. Bundan tashqari “ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga bo‘lgan majburiyatlari”, “farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat’i nazar, qonun oldida tengligi”, “onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinishi”, “voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o‘z ota-onalari haqida g‘amxo‘rlik qilishga bo‘lgan majburiyatlari” ham Asosiy qonunimizning ushbu bobida belgilangan. Nikoh munosabatlarini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oila kodeksi, Fuqarolik kodeksi kabi qonunlar, shuningdek bu munosabatlarga oid qabul qilingan bir qancha qonunosti hujjatlari tartibga soladi. Nikoh tuzishda yosh chegarasi O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 15-moddasida² nikoh yoshi ayollar va erkaklar uchun 18 yosh etib belgilangan. Ushbu moddaning ikkinchi qismida uzrli sabablar bo‘lganida, alohida hollarda (homiladorlik, bola tug‘ilishi, voyaga yetmagan shaxsning to‘la muomalaga layoqatli deb e‘lon qilinishi (emansipatsiya), nikohga kirishni xohlovchilarning iltimosiga ko‘ra nikoh davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko‘pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin deb belgilanib qo‘yilgan. Demak qonunchilik bo‘yicha 17 yoshda ham nikoh tuzish mumkin. Shu paytda tabiiyki bir savol tug‘ilishi mumkin. *17-18 yoshda ayol va erkak qay darajada nikohga tuzishga tayyor bo‘lishadi?* Qonunchilik jihatidan yondashadigan bo‘lsak, 18 yoshga to‘lgan har bir fuqaro nikoh tuzishi mumkin. Bu yoshda biologik jihatdan inson to‘liq shakllangan va nihoh tuzishga tayyor bo‘ladi. Bu yoshda nihoh tuzish qonuniy hisoblanadi va qonunda belgilangan holatlardan tashqari nihoh tuzishga cheklovlar mavjud bo‘lmaydi. Mustasno holatlarni sanaydigan bo‘lsak, Fuqarolik kodeksining 16-moddasida nikoh tuzishga yo‘l qo‘yilmaydigan holatlar belgilanib qo‘yilgan:

Nikoh tuzishga:

loaqal bittasi ro‘yxatga olingan boshqa nikohda turgan shaxslar o‘rtasida;

nasl-nasab shajaras i bo‘yicha to‘g‘ri tutashgan qarindoshlar o‘rtasida, tug‘ishgan va o‘gay aka-ukalar bilan opa-singillar o‘rtasida, shuningdek farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o‘rtasida;

loaqal bittasi ruhiyat buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar o‘rtasida yo‘l

¹ <https://lex.uz/docs/-6445145#-6445717>

² <https://lex.uz/docs/-104720>



qo'yilmaydi.

Hozirgi kundagi ajrim holatlarining aksariyat ko'pchilik qismini erta nikoh tuzish va uning oqibatida kelib chiqadigan oilaviy muammolar, bir-birini tushunmaslik holatlari tashkil qilmoqda. Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga qaraganda 2023-yilning yanvar-iyul³ oylarida respublika bo'yicha 25 400 ta nikohdan ajralish holatlari shuningdek, birgina 2022-yil sentabr oyida esa respublika bo'yicha 4123 ta nihohdan ajralish holatlari qayd etilgan⁴. Bu ko'rstkich oydan-oyga, yildan-yilga oshib bormoqda. Bu ajrim holatlarining sabablarini o'rganganda, muammoning ildizi yosh nikoh tuzganligga borib taqaladi. Oilani himoya qilishning konstitutsiyaviy asoslari mustahkamlanishi uning o'zbek jamiyatidagi rolining muhimligini, davlatning uni qo'llab-quvvatlash, muhofaza qilish va sifatli rivojlantirishdan manfaatdorligini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida oila institutining har tomonlama mustahkamlanishi yo'lida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"⁵gi 2018 yil 29-iyundagi qarori "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son Farmoni⁶ning qabul qilinishi, "Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining VMQ-820 sonli qarori⁷, va shu qarorga ilova tarzida tasdiqlangan Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazlarida mashg'ulotlarni tashkil qilish tartibi to'g'risidagi nizom ham oila institutining huquqiy asoslarini mustahkamlash yo'lida qadam bo'ldi.

Prezidentimizning "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan milliy hamda ma'naviy qadriyatlarimiz asosida ushbu sohada yillar davomida to'planib qolgan, e'tibordan chetda qolib kelgan muammolar yechimi yuzasidan tegishli davlat organlari hamda jamoat

³ <https://daryo.uz/2023/08/08/ozbekistonda-nikohdan-ajralishlar-soni-eng-kop-hudud-malum-qilindi>

⁴ <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/29146-sentabr-oyida-o-zbekistonda-qancha-nikohdan-ajralish-holatlari-qayd-etildi>

⁵ <https://lex.uz/docs/-3797625>

⁶ <https://lex.uz/ru/docs/-4740345>

⁷ <https://lex.uz/docs/-5193551?ONDATE2=05.04.2022&action=compare>



tashkilotlari oldiga eng muhim va dolzarb vazifalar qo'yildi.

Oila muhofazasining xalqaro tajribadagi asoslariga qaraydigan bo'lsak, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi 1994 yildan e'tiboran har yili 15 may kunini Xalqaro oila kuni sifatida nishonlashga qaror qilgani bejizemas. Shuningdek, 1993-yildan buyon Vena, Qohira, Kopengagen, Pekin va dunyoning boshqa shaharlarida bo'lib o'tgan xalqaro anjumanlar kun tartibiga oila masalasining maxsus kiritilishida ham katta ma'no bor. Umuman olganda, har yili belgilanayotgan va amalga oshirilayotgan xayrli ishlarning barchasida oila va uning mustahkamligi muammosi umuminsoniy vazifa sifatida e'tirof etib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida oila instituti mustahkamligi turli xil milliy omillarga ham asoslanganligini ta'kidlab o'tish lozim. Bunda, milliy xususiyatlardan kelib chiqib, oila tizimida keksa yoshlilarning maqomi va ularning muhofazasi ham mustahkamlangan. O'zbekiston olib borayotgan siyosat har bir kishini, jumladan, mehnatga layoqatsizlar, yolg'iz keksalarning ham to'laqonli hayot kechirishini, iqtisodiy va siyosiy turmushda faol ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan. Bunday shaxslarning tibbiy xizmatdan foydalanish, mehnat qilish, bilim olish, dam olish huquqlari alohida imtiyozlar belgilanishi bilan yanada kuchli himoya qilinadi.

Bir so'z bilan aytganda, oila institutining Konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlashdan ko'zlangan asosiy maqsad mamlakatdagi har bir oilaning huquq va manfaatlarini to'liq ro'yobga chiqarish, ular uchun munosib turmush sharoitini yaratish, oilaviy munosabatlar muvozanatini ta'minlash, oila farovonligini oshirish, muxtasar aytganda, oila institutini har tomonlama qo'llab-quvvatlagan holda, davlatning izchil va barqaror taraqqiyotiga erishishdir.

Foydalanilgan manbaalar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 01.05.2023 // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son;
2. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 01.09.1998// Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi// <https://lex.uz/docs/-104720#-158497>;
3. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi 01.03.1997// Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi// <https://lex.uz/docs/-111189>;
4. Oila huquqi. Darslik // Mualliflar jamoasi. Prof. O.I.Oqyulovning umumiy tahriri ostida. –T.: TDYU nashriyoti, 2016. 181 bet;



5. D.I. Babajanova “Oila huquqi”.. Darslik// 2024y.

Elektron adabiyotlar:

1. <https://lex.uz/docs/-104720>
2. <https://lex.uz/docs/-111189?ONDATE2=25.10.2023&action=compare>
3. <https://library-tsul.uz/oila-huquqi-babajanova-d-2024/>
4. <https://daryo.uz/2023/01/19/ozbekistonda-2022-yilda-qaysi-hududda-eng-kop-nikohdan-ajralish-qayd-etilgani-malum-qilindi>